o‘ylaydi. Ichkaridagi holat tasvirida ham shunga monand manzara gavdalantirilgan: qalbidagi «yangi, begona va shirin hislarni» anglayolmay «hayron bo‘lgan birov» ham «ko‘kdagi oyga qarab, yerdagi «toy»ni o‘ylar va yuzlari anorday qizarardi...». Tabiiyki, hamma uxlaganida yolg‘iz uyg‘oq qolgan va haligi sof tuyg‘ularni boshidan kechirayotgan Zebi ekanini o‘quvchi hech qiynalmasdan tanib oladi. Bunday lirik his-tuyg‘ular ifodasiga uyg‘un tasvir Cho‘lpon nasriga xos uslubning bir qirrasini namoyon qiladi.

Muhtaram o‘quvchi! Romandan olinib sizga taqdim etilgan parcha yuzasidan bir qadar tahlillar berildi. Shu mulohazalar sizda romanni to‘liq o‘qishga rag‘bat uyg‘otgan bo‘lishi tabiiy. Asardagi Zebining qismatiga yondosh voqea-hodisalar, ayniqsa, ijtimoiy hayotga tegishli tasvirlar ham sizni befarq qoldirmasa kerak.

Savol va topshiriqlar

1. Cho‘lpon ijodi va uning nasriy asarlariga qisqacha izoh bering.
2. «Kecha va kunduz» romanida qaysi davr voqealari bayon qilinadi?
3. Cho‘lpon ilk bahorni qanday tasvirlaydi? Adibning badiiy mahoratiga baho bering.
4. Zebi tarbiya topgan oilaviy muhitni tavsiflang.
5. Razzoq so‘fi tabiatiga xos jihatlar qanday obrazli ifodalar bilan tasvirlangan?
6. Zebining ota-onasiga xos bo‘lgan sifatlarni o‘zaro qiyoslang. Fikrlaringizni matndan misollar keltirib izohlang.
7. Asardagi Enaxon obrazini tavsiflang.
8. O‘lmasxonning ko‘kdagi oyga qarab, yerdagi «oyni» o‘ylashini qanday tushundingiz, fikr bildiring.
9. Zebining san’atga ixlosini qanday baholaysiz?
10. Saltanat bilan Zebi munosabatlarini izohlang.
11. Romanni to‘liq o‘qib chiqing va uni sinfda muhokama qiling.
12. «Asardan olgan taassurotlarim» mavzusida ijodiy matn yozing.